



MAHALLA DARAJASIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

PhD Bahriddinov Viqorjon

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi
ORCID: 0000-0002-9169-5316*

v.bahriddinov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag'allik darajasini baholashning mavjud metodologiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari o'rganilgan. Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, amaldagi yondashuvlar mahalla darajasida ma'lumot yig'ishning murakkabligi, norasmiy daromadlarni aniqlashdagi qiyinchiliklar hamda rasmiy statistik raqamlarga haddan tashqari tayanish kabi kamchiliklarga egaligi bois, muallif tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirgan, empirik dalillarga asoslangan mukammallashtirilgan yangi metodologiya taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mahallada kambag'allik, iste'mol xarajatlari asosida baholash, ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi, bilvosita daromadni baholash usuli, jamoatchilik asosida targetlash usuli, kompozit kambag'allik indeksi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ УРОВНЯ БЕДНОСТИ НА УРОВНЕ МАХАЛЛИ

PhD Бахриддинов Викоржон

*Ташкентский государственный экономический университет,
Центр институциональных и экономических исследований*

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ существующих методологий оценки уровня бедности, изучены их преимущества и ограничения. В результате анализа выявлено, что действующие подходы имеют такие недостатки, как сложность сбора данных на уровне махалли, трудности в определении неофициальных доходов и чрезмерная опора на официальные статистические данные. В связи с этим автором предложена усовершенствованная новая методология, основанная на эмпирических данных и сочетающая экономические и социальные показатели.

Ключевые слова: бедность в махалле, оценка на основе потребительских расходов, многомерный индекс бедности, метод оценки косвенного дохода, метод таргетирования на основе общественного мнения, композитный индекс бедности.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING POVERTY AT THE MAHALLA LEVEL

PhD **Bahriddinov Viqorjon**Tashkent State University of Economics,
Center for Institutional and Economic Research

Abstract. *This article presents a scientific analysis of existing methodologies for assessing poverty levels, examining their advantages and limitations. The analysis revealed that current approaches have shortcomings, including the complexity of data collection at the mahalla level, difficulties in identifying informal income, and excessive reliance on official statistics. Consequently, the author proposes a new, improved methodology that integrates economic and social indicators, based on empirical evidence.*

Keywords: *poverty in mahallas, assessment based on consumer expenditure, multidimensional poverty index, indirect income assessment method, community-based targeting method, composite poverty index.*

Kirish.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy transformatsiyalar davrida kambag'allik muammosi nafaqat ijtimoiy, balki makroiqtisodiy barqarorlikning ham asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini kuchaytirish uchun kambag'allikni aniq, tizimli va ilmiy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida aholining daromad manbalari, yashash sharoitlari va infratuzilma imkoniyatlari hududlar kesimida sezilarli farq qilayotgan bir paytda, mavjud baholash metodologiyalarini takomillashtirish zarurati yanada ortmoqda.

Amaldagi xalqaro metodologiyalar, jumladan, "Uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari asosida baholash", "Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi", "Bilvosita daromadni baholash" usuli, "Jamoatchilik asosida targetlash" kabi usullar o'zining afzalliklariga ega bo'lishiga qaramay, O'zbekistonning mahalla darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitini to'liq aks ettira olmaydi. Ular asosan milliy yoki mintaqaviy miqyosda qo'llanilib, aholining real turmush sharoitidagi tafovutlar, yashirin daromadlar va mahalliy ijtimoiy tarmoqlarning rolini yetarlicha hisobga olmaydi. Shu sababli kambag'allikni o'lchashda hududiy, ayniqsa mahalla kesimidagi yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur sharoitda kambag'allikni baholash metodologiyasini takomillashtirish, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy omillarni integratsiyalashgan holda o'lchov tizimiga kiritish, natijalarni normallashtirish orqali ob'ektivlikni oshirish va mahalla miqyosida qo'llash imkoniyatini yaratish zarur. Shu maqsadda muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Mahallada Kompozit Kambag'allik Indeksi (MKKI)" metodologiyasi mavjud yondashuvlarni yanada mukammallashtirishga qaratilgan bo'lib, u kambag'allikni lokal darajada chuqur tahlil qilish, ijtimoiy siyosatni maqsadli yo'naltirish va ijtimoiy yordam tizimini samarali shakllantirish imkonini beradi. Shunda asosan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston sharoitida kambag'allikni baholashning mavjud xalqaro metodologiyalarini tahlil qilish hamda mahalla darajasida qo'llash uchun mos, integratsiyalashgan, matematik asosga ega bo'lgan takomillashtirilgan metodologiyani ishlab chiqishdan iborat. Mazkur yondashuv kambag'allikni faqat daromad bilan emas, balki ijtimoiy infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy sifati kabi ko'p omillar asosida kompleks baholashga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda kambag'allikni o'lchash bo'yicha xalqaro va milliy miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ushbu muammoning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, demografik va institutsional jihatdan ham murakkab ekanini ko'rsatadi. Kambag'allikni baholash nazariyasining falsafiy asosi

A. Sen (1999) tomonidan ishlab chiqilgan “imkoniyatlar yondashuvi” (capability approach) g’oyasiga borib taqaladi. Sen kambag’allikni daromad yetishmovchiligi emas, balki insonning hayotiy imkoniyatlari va tanlov erkinligining cheklanishi sifatida talqin qilgan. Mazkur yondashuv asosida Alkire va Foster (2011) ko’p o’lchovli kambag’allik indeksini (MPI) ishlab chiqib, uni ta’lim, sog’liq va turmush darajasi kabi uchta o’lchovda amaliyotga tatbiq etgan. Bu yondashuv BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Oksford kambag’allik va inson rivojlanishi tashabbusi (OPHI) tomonidan jahon miqyosida qabul qilinib, hozirda 100 dan ortiq davlatlarda qo’llanilmoqda. Kambag’allikni monetar mezonlar asosida o’lchash yo’nalishida esa Ravallion (1994) hamda Haughton va Khandker (2009) ishlarida kambag’allik chizig’i, Headcount Ratio va Poverty Gap ko’rsatkichlarining iqtisodiy mazmuni va amaliy qo’llanilishi tahlil qilingan. Ularning fikricha, bu yondashuv kambag’allik darajasini tez va aniq o’lchash imkonini beradi, biroq kambag’allikning chuqurligi va tengsizlik jihatini to’liq aks ettirmaydi. Shu sababli Foster, Greer va Thorbecke (1984) kambag’allikni o’lchashda darajaviy yondashuvni taklif etib, ijtimoiy farovonlikning dekompozitsiyalanadigan matematik modelini ishlab chiqishgan.

Amaliy jihatdan, ijtimoiy yordam dasturlarida kambag’allarni aniqlashda “Proxy Means Test” (PMT) usuli keng qo’llaniladi. Grosh va Baker (1995) hamda Coady, Grosh va Hoddinott (2004) o’z tadqiqotlarida ushbu yondashuv yordamida ehtiyojmand oilalarni aniqlashning afzalliklarini ko’rsatgan, biroq bashorat xatolari yuqoriligi sababli ularni yangilab turish zarurligini ta’kidlagan. Kidd va Wylde (2011) esa PMT metodida kambag’allikni noto’g’ri tasniflash holatlari 50 foizgacha yetishini aniqlab, bu yondashuvni ishonchlilik nuqtayi nazaridan qayta ko’rib chiqishni tavsiya etgan.

Shuningdek, kambag’allikni aniqlashda jamoaviy yondashuvning o’rni ham alohida o’rganilgan. Conning va Kevane (2002) “community-based targeting” mexanizmlarini tahlil qilib, mahalliy aholining o’z hududidagi kambag’allarni aniqlashdagi ijtimoiy bilimi va ishtiroki samaradorlikni oshirishini ko’rsatgan. Biroq ular “elita egallashi” (elite capture) xavfi mavjudligini, ya’ni ta’sirli shaxslarning qarorlarga aralashuvi adolatni buzishi mumkinligini qayd etganlar. Shu yo’nalishdagi dala tadqiqotlarida Alatas va boshqalar (2012) Indoneziyada jamoaviy baholash orqali tanlangan oilalar yordam natijalaridan ko’proq qoniqish bildirganini qayd etganlar.

O’zbekiston misolida esa kambag’allikni baholash va ijtimoiy yordamni manzilli yo’naltirishda mahalla instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Coudouel, Marnie va Micklewright (1998) o’z tadqiqotlarida “mahalla modeli”ni o’rganib, mahalliy darajadagi xabardorlik va ijtimoiy nazorat afzalliklari bilan bir qatorda, sub’ektiv baholash va tanish-bilishchilik xavfini ham ko’rsatib o’tgan. Keyingi yillarda esa bu tizim “Yagona ijtimoiy reyestr” bilan integratsiyalashgan holda modernizatsiya qilindi. 2023-yilda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR, 2023) hamda BMTTD hamkorligida O’zbekiston uchun “Milliy ko’p o’lchovli kambag’allik indeksi” ishlab chiqildi va unda 13 ta indikator asosida mahalliy sharoitga mos metodologiya ishlab chiqildi. Bu yondashuv O’zbekistonda kambag’allikni faqat monetar emas, balki ijtimoiy o’lchovlarda ham tahlil qilish amaliyotini joriy etdi.

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari kambag’allikni aniqlashda integratsiyalashgan yondashuv- monetar, ijtimoiy va mahalliy indikatorlarni birlashtirish - eng to’g’ri natijani berishini ko’rsatadi. Xalqaro tajriba kambag’allikni chuqur tahlil qilishda ko’p o’lchovli yondashuvning afzalligini tasdiqlasa, O’zbekiston tajribasi bu modelni mahalla darajasida so’rovnoma asoslangan empirik baholash shaklida takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi gipotezaning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan bo’lib, unda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, sabab-oqibat bog’liqliklarini aniqlash, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Kambag’allikni baholash bo’yicha bir necha metodologiyalarni qiyosiy tahlil qilish hamda O’zbekiston iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda Mahallada Kompozit Kambag’allik Indeksi (MKKI) ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqotda kambag'allikni hisoblashda xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan to'rtta asosiy metodologiyalar, xususan, Jon boshi ulushi (Headcount Ratio), Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi (Multidimensional Poverty Index) va Bilvosita daromadni baholash testi (Proxy Means Test) hamda jamoatchilik asosida targetlash usuli (Community-based targeting method) kabi metodologiyalar tahlil qilindi. Ushbu metodlar o'z yondashuvi va hisoblash usullari bilan farqlanib, kambag'allikni o'lchashda turli natijalar beradi. Quyida ushbu metodologiyalar bilan batafsil tanishamiz (1-jadval).

Kambag'allikni uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari asosida baholash usuli mamlakat statistik amaliyotida eng keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod oilalarning iste'mol hajmini yashash minimumi bilan solishtirish orqali kambag'allik darajasini aniqlashga imkon beradi. Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi natijani tezkor, aniq va nisbatan sodda shaklda hisoblash imkoniyatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, yashirin daromadlar yuqori ulushni tashkil etadigan hududlarda, xususan qishloq joylarda, barcha moliyaviy oqimlarni to'liq qamrab olish qiyinligi sababli, natijalar real iqtisodiy ahvoldan chetlashishi mumkin. Bu holat metodning amaliy ishonchliligini cheklab, kambag'allikning haqiqiy darajasini to'liq aniqlashda ma'lum aniqlik muammolarini yuzaga keltiradi.

Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi esa kambag'allikni yanada kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Ushbu metod nafaqat daromad va sarf-harajat ko'rsatkichlarini, balki ta'lim, sog'liq, uy-joy sifati, infratuzilma, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kabi omillarni ham qamrab oladi. Mazkur yondashuv kambag'allikni inson farovonligining turli jabhalari orqali o'lchashga imkon berib, uni faqat iqtisodiy holat emas, balki ijtimoiy hayot sifatining umumiy darajasi bilan bog'laydi. Biroq, indikatorlarga og'irlik berishdagi sub'ektivlik, ma'lumot yig'ish jarayonining yuqori moliyaviy xarajatlar va vaqt talab qilishi, hamda ayrim hollarda so'rov ma'lumotlarining yetarli sifatda bo'lmasligi bu metodning amaliy qo'llanish doirasini cheklaydi.

Bilvosita daromadni baholash testi esa oilaning iqtisodiy ahvolini yashash sharoiti, mulkiy holati, uy jihozlari va asosiy ehtiyojlarni qondirish darajasi kabi mezonlar asosida baholaydi. Bu yondashuv ijtimoiy yordamni manzilli va samarali taqsimlashda keng qo'llaniladi. Metodning afzalligi shundaki, u daromadni to'g'ridan-to'g'ri aniqlash imkoni cheklangan hollarda, bilvosita indikatorlar orqali ancha aniq baholash natijalarini taqdim etadi. Shu bilan birga, indikatorlarni noto'g'ri tanlash yoki ularning og'irligini noadekvat belgilash ayrim oilalarning noto'g'ri tasniflanishiga, natijada kambag'allik darajasi haqidagi ma'lumotlarda xatoliklar paydo bo'lishiga olib keladi.

Jamoatchilik asosida targetlash usuli usuli kambag'allikni aniqlash jarayonida bevosita mahalla faollari va jamoatchilik vakillarining fikriga tayanadi. Ushbu metod mahalliy aholining kundalik turmush sharoitidan xabardorligi va ijtimoiy aloqalar tizimiga asoslanishi bilan afzal hisoblanadi. Bu yondashuv mahalla darajasida yashirin kambag'allikni aniqlashda, rasmiy statistik ko'rsatkichlarda aks etmagan holatlarni ochib berishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, sub'ektiv baholash, manfaatdorlik yoki tarafkashlik omillari natijalarning ishonchliligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, bu metod mustaqil tarzda emas, balki boshqa yondashuvlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llanganda yuqori samaradorlik beradi.

1-jadval.

Kambag'allik darajasini baholashning mavjud metodologiyalari⁹.

Metodologiya nomi	Mohiyati	Matematik ifodasi	Qo'llanilish sohasi
Uy xo'jaliklari iste'mol harajatlari asosida baholash. Headcount Ratio – jon boshi ulushi)	Uy xo'jaligi sarf-harajatlarini yashash minimumi (Z) bilan solishtirish orqali kambag'allik darajasi aniqlanadi.	Kambag'allik nisbati (HCR): $H = \frac{q}{n}$ Bu yerda: q – kambag'al uy xo'jaliklari soni, n – jami uy xo'jaliklari. Kambag'allik bo'shlig'i (Poverty Gap): $PG = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^q \left(\frac{Z - y_i}{Z} \right)$ Bu yerda: y_i – i-chi uy xo'jaligining xarajat darajasi.	Davlat statistika qo'mitasi tomonidan rasmiy kambag'allik darajasini hisoblashda qo'llaniladi.
Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi. Multidimensional Poverty Index, Alkire–Foster	Ta'lim, sog'liq, uy-joy, infratuzilma kabi ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy deprivatsiya indeksi aniqlanadi.	Har bir oila uchun: $PG = d \frac{\sum_{j=1}^d w_j \cdot g_{ij}}{\sum_{j=1}^d w_j}$ Bu yerda: $g_{ij} = 1$ (agar i-chi oila j-indikator bo'yicha kambag'al bo'lsa), w_j – og'irlik. Umumiy MPI: $MPI = H \cdot A$ Bu yerda: H – kambag'allik qamrovi, A – o'rtacha deprivatsiya darajasi.	UNDP, Jahon banki, kabi xalqaro tashkilotlar va ilmiy tadqiqot institutlari mamlakatning umumiy kambag'allik darajasini baholashda qo'llaniladi.
Bilvosita daromadni baholash testi. Proxy Means Test (PMT).	Uy xo'jaligining daromadi va farovonligini bilvosita belgilovchi omillar (uy sharoiti, mulk, jihozlar) asosida ball to'plash orqali baholanadi.	PMT modeli (regressiya): $\hat{y}_i = \beta_0 + \sum_{k=1}^m \beta_k \cdot X_{ik} + \varepsilon_i$ Bu yerda: X_{ik} – i-chi oila uchun kuzatiladigan indikator (masalan, televizor bor/yo'q), β_k – koeffitsientlar. Agar, $\hat{y}_i < Z$, oila kambag'al hisoblanadi.	Uy xo'jaliklarining turmush sifati darajasini bilvosita baholash orqali kambag'allik darajasini o'lchash mumkin.
Munisipal hukumat va uning vakolatli organlari yordamida maxsus o'rganish (mahalla ishtirokida baholash). Jamoatchilik asosida targetlash usuli - Community-based targeting method	Mahalla faollari va qo'shnilar yordamida kambag'allikni aniqlash (ijtimoiy baho)	$v_{ij} = \begin{cases} 1, \\ 0, \end{cases}$ 1, Agar j kuzatuvchi, oilani kambag'al deb hisoblasa; 0, Agar j kuzatuvchi, oilani kambag'al deb hisoblamasa; Bu holda, i-chi oilaning kambag'allik ehtimoli quyidagicha ifodalanadi: $P(\text{poor})_i = \frac{\sum_{j=1}^N v_{ij}}{N}$ Agar: $P(\text{poor})_i = 1 \rightarrow$ barcha a'zolar i-chi oilani kambag'al deb tan oladi. Agar: $P(\text{poor})_i = 0 \rightarrow$ hech kim u oilani kambag'al deb hisoblamaydi. Agar: $0 < P(\text{poor})_i < 1 \rightarrow$ qarashlar turlicha, mahallada kambag'allik bo'yicha konsensus yo'q.	Mahalla institutlari orqali yordamida ijtimoiy himoya restrini shakllantirishda qo'llash mumkin.

⁹ Mavjud tadqiqotlarni o'rganish orqali muallif tomonidan tuzildi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni baholashda qo'llaniladigan har bir metodning o'ziga xos kuchli va zaif jihatlari mavjud. Monetar yondashuvlar natijalarning tezkorligini ta'minlasa, ko'p o'lchovli va ijtimoiy indikatorlarga asoslangan metodlar kambag'allikni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi (1-jadval).

2-jadval.

Metodologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

Metodologiya	Afzalliklari	Kamchiliklari
Uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari asosida baholash. Headcount Ratio - Kambag'allik nisbati)	- Rasmiy statistika bilan uyg'unlashadi va tezkor hisoblash imkonini beradi. - Minimal iste'mol savati orqali kambag'allik chegarasi aniq belgilanadi. - Oddiy va universal qo'llaniladigan usul.	- Mahalla darajasida ma'lumotlarni yig'ish qiyin. - Norasmiy daromadlarni to'liq qamrab olmaydi. - Qishloq joylarda tabiiy xo'jalik xarajatlari hisobdan chetda qolishi mumkin.
Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi. Multidimensional Poverty Index, Alkire-Foster	- Ta'lim, sog'liq, uy-joy va infratuzilma omillarini qamrab oladi. - Mahalla ijtimoiy muammolarini kompleks yoritadi. - Kambag'allikni faqat pul ko'rsatkichi bilan emas, turmush sifati bilan ham o'lchaydi.	- Indikatorlarga og'irlik berishda sub'ektivlik mavjud. - Mahalla miqyosida barcha ma'lumotlarni yig'ish qimmat va vaqt talab qiladi. - Statistika bazasiga tayanadi, doimiy monitoring qiyin.
Bilvosita daromadni baholash testi. Proxy Means Test (PMT).	- Daromadni yashiradigan oilalarni ham sharoit va mulk asosida baholash imkonini beradi. - Ijtimoiy yordamni maqsadli ajratishda samarali. - Raqamlashtirish imkoniyati yuqori (masalan, Yagona reyestr orqali).	- Indikatorlar noto'g'ri tanlansa, noto'g'ri tasniflash ehtimoli kuchli. - Mahallada real muhtoj oilalar chetda qolishi mumkin. - Oila haqiqiy kambag'al bo'lsa-da, tashqi atributlari tufayli yordamdan mahrum bo'lishi ehtimoli bor.
Munisipal hukumat va uning vakolatli organlari yordamida maxsus o'rganish (mahalla ishtirokida baholash). Jamoatchilik asosida targetlash usuli - Community-based targeting method	- Mahalla faollari oilalarning real turmush sharoitidan bevosita xabardor. - Tezkor va kam xarajatli baholash imkonini beradi. - Rasmiy statistikada ko'rinmagan yashirin kambag'allikni ham aniqlaydi.	- Sub'ektivlik yuqori, qarorlar shaxsiy munosabatlarga bog'liq bo'lishi mumkin. - Mahalla elitalari manfaatdorligi yoki korrupsiya xavfi mavjud. - Ilmiy asoslangan statistik natijalar bilan doim ham mos kelmasligi mumkin.

Jadvaldagi ma'lumotlarni umumlashtirib baholaganimizda, turli metodologiyalarning o'ziga xos foydali jihatlari bilan bir qatorda, ularni qo'llashda yuzaga chiqadigan qator cheklovlar ham mavjudligi ayon bo'ladi. Ayrim usullar rasmiy hisob-kitoblarda qulay va tezkor natija berishi mumkin, biroq mahalla darajasida yashirin daromadlarni aniqlashda samarasi

past bo'ladi. Boshqa yondashuvlar ta'lim, sog'liq va turmush sharoitlari kabi ko'rsatkichlarni qamrab olgani uchun kompleks tahlilga yordam beradi, lekin ularni amalga oshirish katta hajmdagi resurs va vaqtni talab qiladi. Shuningdek, ayrim metodlar yordamni aniqroq yo'naltirish imkonini bersa-da, noto'g'ri indikator tanlanishi natijani buzib ko'rsatishi ehtimoli bor. Mahalla aholisi va faollari fikriga asoslangan baholash amaliyotda tezkor va samarali natija berishi mumkin, biroq sub'ektiv qarashlar, tarafkashlik yoki manfaatdorlik xavfi uni cheklab qo'yadi. Shu sababli, turli metodlarni integratsiyalashgan holda qo'llash eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Shunday ekan, eng maqbul yondashuv sifatida turli metodlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va mahalliy omillarni birlashtirgan kompleks baholash tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan, mavjud metodologiyalarning chuqurroq ilmiy tahlili ushbu tadqiqotning mantiqiy davomi sifatida qaraladi va keyingi bosqichda mahalla darajasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan takomillashtirilgan metodologiya taklif etiladi.

O'zbekistonda mahallalar kesimida kambag'allikni yanada aniqroq va ishonchli baholash uchun mukammalroq, kompleks metod ishlab chiqish zarurati mavjud. Quyida biz taklif etadigan metod so'rovnoma asosida to'plangan empirik dalillar asosida mahallada kambag'allik darajasini keng qamrovli baholashga e'tibor qaratadi.

Taklif etilayotgan metodologiya uchun zarur bo'lgan o'zgaruvchilar dastlab ikkita blokdan va sakkizta savoldan iborat bo'lgan ijtimoiy so'rovnoma orqali shakllantiriladi.

3-jadval.

Taklif etilayotgan metodologiya uchun zarur bo'lgan o'zgaruvchilarni shakllantirish bo'yicha so'rovnoma savollari¹⁰.

So'rovnoma bloklari	So'rovnoma savollari	Savolni baholash shkalasi
I. Iqtisodiy blok.	"Oylik daromadingiz qancha?",	Miqdoriy o'lchovda: "past", "o'rtacha", "yuqori"
	"Oila umumiy xarajatlari asosan qaysi sohalarga yo'naltiriladi?",	Birlamchi ehtiyojlarga (ovqat, sog'liq, uy-joy) ajratilgan ulush yuqori bo'lsa 1 ga yaqin ball; ikkilamchi tovarlarga yo'nalsa 0 ga yaqin ball.
	"Oilada qarz yoki kredit mavjudmi?",	Ha=1, Yo'q=0
	"Jamg'arma qilasizmi?",	Ha=1, Yo'q=0
II. Ijtimoiy blok.	"Farzandlaringiz ta'lim oladimi?",	Ha=1, Yo'q=0
	"So'nggi bir yilda shifokor xizmatidan foydalanish imkoniyati bo'ldimi?",	Ha=1, Yo'q=0
	"Uy-joyingiz qanday materialdan qurilgan?",	Ordinal shkala: beton/g'isht (1), loy/taxta (0.5), vaqtinchalik inshoot (0).
	"Ichimlik suvi va elektr energiyasi doimiy mavjudmi?",	Likert shkala: Ha (1), Qisman/vaqt-vaqti bilan (0.5), Yo'q (0).

Manba: So'rovnoma savollari ijtimoiy-iqtisodiy muhimlik darajasiga ko'ra muallif tomonidan tuzilgan.

Dastlab har bir blok bo'yicha ko'rsatkichlar shakllantirib olinadi. Iqtisodiy blok bo'yicha olingan natijalar yordamida quyidagicha kompozitsion indeks tuziladi:

$$E_i = \frac{w_1 \cdot Income_i + w_2 \cdot (1/Expenditure_i) + w_3 \cdot Savings_i - w_4 \cdot Debt_i}{w_1 + w_2 + w_3 + w_4}$$

Bu yerda, w_j – o'zgaruvchilarning vazni (regressiya yoki ekspert bahosi orqali aniqlanadi).

¹⁰ So'rovnoma savollari ijtimoiy-iqtisodiy muhimlik darajasiga ko'ra muallif tomonidan tuzilgan.

Ijtimoiy blokda shakllantirilgan savollar bo'yicha ballar yig'ib chiqiladi va u quyidagi holatga keltiriladi:

$$S_i = \frac{\sum_{k=1}^m v_k \cdot I_{ik}}{\sum_{k=1}^m v_k}$$

Bu yerda, I_{ik} – ijtimoiy indikator qiymati (0–1 oralig'ida normallashtirilgan), v_k – ijtimoiy indikatorning vazni.

Bu yerda iqtisodiy va ijtimoiy indekslar turli birliklarda ifodalanishi mumkinligi sababli ularni bevosita taqqoslash yoki yagona integral ko'rsatkichga birlashtirish ilmiy jihatdan to'g'ri natija bermaydi. Shu bois, barcha ko'rsatkichlarni bir xil o'lchov mezoniga keltirish maqsadida min–max normalizatsiya usuli qo'llanadi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

$$X'_i = \frac{X_i - \min(X)}{\max(X) - \min(X)}$$

Mazkur transformatsiya har bir indikator qiymatini 0–1 diapazoniga proporsional tarzda joylashtiradi va natijada indikatorlar o'zaro qiyoslanadigan, vaznlar yordamida integratsiyalashga tayyor ko'rinishga keladi. Normallashtirishning zaruriyati shundan iboratki, u iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar o'rtasida o'lchov birliklari farqi tufayli yuzaga keladigan notekislikni bartaraf etadi, indeks hisoblashda ayrim ko'rsatkichlarning haddan tashqari ta'sir kuchiga ega bo'lishining oldini oladi hamda yakuniy natijaning ob'ektivligini ta'minlaydi. Endilikda, "Mahallada Kompozit Kambag'allik Indeksi (MKKI) ni hisoblashni uslubiyatini ko'rib chiqamiz:

$$MKKI_i = \frac{\alpha_1 \cdot E'_i + \alpha_2 \cdot S'_i + \alpha_3 \cdot (E'_i \times S'_i)}{\alpha_1 + \alpha_2 + \alpha_3}$$

Bu yerda:

E'_i – normallashtirilgan iqtisodiy indeks (daromad, xarajat, qarz va jamg'arma ko'rsatkichlari asosida),

S'_i – normallashtirilgan ijtimoiy indeks (ta'lim, sog'liq, uy-joy sifati va infratuzilma asosida),

$E'_i \cdot S'_i$ – iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar o'zaro ta'sirini ifodalovchi interaktiv komponent,

$\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3$ – vazn (regressiya) koeffitsiyentlari.

Mahallada Kompozit Kambag'allik Indeksi (MKKI) hisoblangandan keyin uning natijalari quyidagicha talqin qilinadi:

0 ga yaqin qiymatlar – oila kambag'allikdan ancha yiroq, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror.

0,3–0,5 oralig'i – oila qisman kambag'allik xavfi ostida, ayrim resurslar yetishmaydi.

0,5–0,7 oralig'i – o'rtacha darajadagi kambag'allik, ijtimoiy yordamga muhtoj.

0,7 va undan yuqori – chuqur kambag'allik, asosiy ehtiyojlarni ham mustaqil qondirish qiyin.

Mazkur indeksning biroz murakkab jihati shundaki, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning ta'sirchanligi koeffitsientlari regressiya tenglamasi orqali hisoblanadi. Biroq, shunday bo'lishiga qaramasdan kambag'allik borasida aniq va ishonchlik ma'lumot olishga imkon beradi.

Muallif tomonidan taklif qilinayotgan ushbu metodologiya mavjud kambag'allikni baholash usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega bo'lib, mahalla darajasida kambag'allikni yanada aniqroq, chuqurroq va real sharoitga yaqinroq baholash imkonini beradi.

Uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari asosida baholash usuli kambag'allikni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali o'lchaydi. Bu yondashuv tezkor natija beradi, biroq yashirin daromadlar

yuqori bo'lgan hududlarda to'liq tasavvur bermaydi. Muallif tomonidan taklif qilinayotgan metodologiya esa iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni birlashtirgan holda, oilaning farovonligini ko'p o'lchovli tarzda baholaydi. Ayniqsa, unda ta'lim, sog'liq, uy-joy sifati va infratuzilma kabi ijtimoiy omillarni hisobga olish kambag'allikni yanada to'liqroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi ijtimoiy ko'rsatkichlarni qamrab olsa-da, odatda milliy yoki mintaqaviy darajada qo'llanadi va katta statistik resurslar talab qiladi. Muallif metodologiyasi esa mahalla miqyosidagi empirik ma'lumotlarga asoslanadi, bu esa uni bevosita amaliy qo'llanishga moslashtiradi. Shu jihatdan, u mahalla miqyosida ijtimoiy siyosat va yordam dasturlarini shakllantirishda ancha qulay vosita sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, bilvosita daromadni baholash testi oilaning yashash sharoiti, mulki va uy jihozlariga asoslanadi. Bu usul ijtimoiy yordamni manzilli taqsimlashda foydalidir, ammo oilaning ta'lim, sog'liq va infratuzilma imkoniyatlarini to'liq qamrab olmaydi. Muallif tomonidan taklif qilinayotgan metodologiya esa ushbu omillarni ham o'zida mujassam etadi hamda iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlash orqali kambag'allikning chuqurligini yanada realroq ifodalash imkonini beradi.

Yana bir jihat shundaki jamoatchilik asosida targetlash usuli ko'pincha sub'ektiv fikrlarga tayanadi, natijada tarafkashlik yoki manfaatdorlik ta'siri kuzatilishi mumkin. Muallif metodologiyasi esa so'rovnoma asosida to'plangan empirik ma'lumotlar hamda matematik modellashirish yondashuvlariga tayanganligi sababli, natijalarning ilmiy asoslanganligi va ob'ektivligini ta'minlaydi. Shuningdek, unda min-max normalizatsiya hamda og'irlik koeffitsiyentlarini regressiya orqali aniqlash mexanizmlari qo'llanilib, baholash natijalarining aniqligi va ishonchligi oshiriladi.

Muallif taklif etayotgan yondashuvning muhim ustunligi shundaki, u kambag'allikni "bor yoki yo'q" tamoyili asosida emas, balki darajaviy baholash tizimi orqali ifodalaydi. Ya'ni, indeks qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda o'zgaradi. Bu esa oilalarni kambag'allikning turli bosqichlari, nisbiy, o'rtacha yoki chuqur darajalarda tasniflash imkonini beradi hamda ijtimoiy siyosatni maqsadli yo'naltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, muallif tomonidan taklif qilinayotgan metodologiya boshqa yondashuvlardan farqli ravishda kambag'allikni hududiy, ko'p omilli va o'zaro ta'sirli shaklda tahlil etish imkonini beradi. Shu bois, u ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan foydali mexanizm bo'lib, mahalla darajasida kambag'allikni aniqlash, monitoring qilish va ijtimoiy yordam dasturlarini optimallashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sifatida O'zbekiston sharoitida mahalla darajasida kambag'allikni baholash mavjud yondashuvlarni ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilib, yanada aniq, empirik dalillarga asoslangan, kompleks baholash tizimini ishlab chiqishdan iborat etib belgilangan edi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hozirda qo'llanilayotgan kambag'allikni baholash usullari ayrim afzalliklarga ega bo'lsa-da, mahalla darajasidagi real iqtisodiy va ijtimoiy sharoitni to'liq aks ettira olmaydi. Buning sababi sifatida yashirin daromadlarni hisoblashdagi murakkabliklar, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlar hamda infratuzilmaning holatini o'lchashdagi cheklovlar ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida muallif tomonidan taklif etilgan takomillashtirilgan metodologiya ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni birlashtiruvchi kompozitsion baholash tizimi bo'lib, u so'rovnoma asosida to'plangan empirik ma'lumotlarga, ularning quyi va yuqori normalizatsiyasi va regressiya tahliliga tayangan holda shakllantirilgan. Natijada, kambag'allik darajasi 0 dan 1 gacha oraliqda aniqlanib, u "kambag'al" yoki "boy" tarzidagi soddalashtirilgan tasnifdan farqli ravishda darajaviy baholashga imkon beradi. Ushbu yondashuv kambag'allikni iqtisodiy omillar (daromad, xarajat, qarz, jamg'arma) bilan bir qatorda ijtimoiy omillar (ta'lim, sog'liq, uy-joy

sifati, infratuzilma holati) orqali tahlil etadi va ularning o'zaro ta'sirini ($E \times S$) hisobga olgan holda natijani yanada real shaklda aks ettiradi.

Takomillashtirilgan metodologiyani ilmiy yangiligi shundaki, u indikatorlarning vaznlarini regressiya tahlili yordamida aniqlaydi, sub'ektivlik darajasini kamaytiradi va baholash natijalarining ob'ektivligini oshiradi. Bu metodologiya kambag'allikni nafaqat o'lchash, balki uning sabablari va tuzilmasini tahlil qilish imkonini beradi. Amaliy jihatdan, ushbu metodologiya mahalla miqyosida ijtimoiy siyosatni maqsadli yo'naltirish, resurslarni oqilona taqsimlash va kambag'allikka qarshi kurashish dasturlarining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, u kambag'allik darajasini muntazam monitoring qilish, mahalla byudjetini shakllantirishda ustuvor yo'nalishlarni belgilash va mahalla instituti faoliyatini yanada takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Umuman olganda, muallif tomonidan ishlab chiqilgan takomillashtirilgan metodologiya mahalla darajasida kambag'allikni empirik, kompleks va darajaviy asosda baholash imkonini beruvchi yangi ilmiy yondashuv bo'lib, u O'zbekiston sharoitida ijtimoiy adolatni ta'minlash, iqtisodiy inklyuzivlikni kuchaytirish va kambag'allikka qarshi siyosatni tizimli asosda modernizatsiya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Sen, A. (2014). *Development as freedom (1999). The globalization and development reader: Perspectives on development and global change*, 525.

Alkire, S., & Foster, J. (2011). *Counting and multidimensional poverty measurement. Journal of Public Economics*, 95(7–8), 476–487.

Ravallion, M. (1994). *Poverty Comparisons* Chur. Switzerland: Harwood Academic Publishers.

Haughton, J., & Khandker, S. R. (2009). *Handbook on poverty and inequality*. Washington, DC: World Bank.

Foster, J., Greer, J., & Thorbecke, E. (1984). *A class of decomposable poverty measures. Econometrica*, 52(3), 761–766.

Grosh, M., & Baker, J. (1995). *Proxy means tests for targeting social programs: Simulations and speculation. World Bank LSMS Working Paper*, No. 118.

Coady D., Grosh M., Hoddinott J. (2004). *“Targeting of Transfers in Developing Countries: Review of Lessons and Experience.”* World Bank.

Kidd, S., & Wylde, E. (2011). *Targeting the poorest: An assessment of the proxy means test methodology. Australian Aid (AusAID) Research Report*.

Conning J., Kevane M. (2002). *“Community-Based Targeting Mechanisms for Social Safety Nets: A Critical Review.”* *World Development*, 30(3): 375–394.

Alatas, V., Banerjee, A., Hanna, R., Olken, B., & Tobias, J. (2012). *Targeting the poor: Evidence from a field experiment in Indonesia. American Economic Review*, 102(4), 1206–1240.

Coudouel, A., Marnie, S., & Micklewright, J. (1998). *Targeting social assistance in a transition economy: The Mahallas in Uzbekistan. MOCT-MOST: Economic Policy in Transitional Economies*, 8(3), 279–298.

CERR & UNDP Uzbekistan. (2023). *Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report*. Tashkent: Center for Economic Research and Reforms.